

ANDIJON VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY INFRATUZILMASI

Karimov Dilshodbek Abdumalikovich¹

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti davrida Andijon viloyatida iqtisodiy rivojlanishning hududiy tabaqalanishining o'ziga xosligi, shu bilan birga hududiy asos va o'sish qutblari tizimini shakllantirish, hududiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri hududni qisqartirishdir, ijtimoiy-iqtisodiy farqlash, kompleks tufayli hududning rivojlanishi ob'ektiv omilla to'liq bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: iqtisod, bozor, o'sish, o'sish qutblari, yer, kapital va mehnat resurslar.

Andijon viloyati yer yuzasi asosan tekislik. Hozirgi relyefi va yer yuzasidagi jinslar to'rtlamchi geologik davrning katta-kichik daryolari va irmoqlarining faoliyatidan hosil bo'lgan. So'nggi yillarda Andijon viloyatida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Yirik sanoat korxonalarini soni sezilarli darajada ko'paydi, aloqa o'rnatildi, ijtimoiy ob'yektlar va ko'p xonadonli uy-joylar qurildi.

Viloyatda foydali qazilmalarni qazib chiqarish, paxtachilik shundayligicha xom ashyo sifatida metropoliyam jo'natilar edi. 1907-yil yarim hunarmandchilikka asoslangan yog' zavodi qurildi. Dastlab bu zavod bir kecha-kunduzda 50 t chigitni qayta ishlab, 8 t ga yaqin yog' chiqarar edi. 1954-yilda zavod yog'-moy kombinatiga aylantirildi. 1960-70 yillarda Andijon shahrida "Elektrovigatel", "Elektroapparat" kabi yirik korxonalar, Marhamatda esa "Elektrotexnika" zavodi qurildi. 1941-yil Andijon shahrida motorsozlik zavodi ishga tushirildi. Mustaqillik yillarida viloyat industriyasi o'z yo'nalishini o'zgartirib, tubdan rivojlanmoqda. Mavjud korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkchilikning o'zgacha shakliga kirib bormoqda. Xususan aksariyat yirik va o'rta korxonalar negizida aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Viloyatda mulkchilikning barcha turiga oid 160 sanoat korxonasi bor (2000). Bulardan yiriklari: Bobur nomidagi ip-gazlama ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyati (Andijon shahrida; tumanlarda bo'limlari bor), "Andijon agrofirma" aksiyadorlik jamiyati, Andijon avtomobil o'rindiqlari zavodi, Andijon biokimyo zavodi, Andijon irrigatsiya mashinasozlik zavodi, Andijon "Semurg" trikotaj aksiyadorlik birlashmasi, Andijon don mahsulotlari aksiyadorlik jamiyati, "Andijonkabel aksiyadorlik jamiyati", Chinobod paxta tozalash aksiyadorlik jamiyati. 1991-2000-yillar davomida Andijon viloyatida jahon andozasi darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy qo'shma korxonalar bunyod qilindi. Viloyatda 79 qo'shma korxonalar, 8447 kichik va xususiy korxonalar mavjud. Viloyatdagi qo'shma korxonalar butun viloyat yalpi sanoat mahsulotining 53 %dan ko'prog'ini ishlab chiqarmokda (2000). Italiyaning "Aka-uka Federichi" aksiyadorlik jamiyati bilan hamkorlikda Asakada barpo etilgan O'zbek-Italiya "FAM" qo'shma korxonasi soatiga turiga qarab 1-1,5 t makaron ishlab chiqarish quvvatiga ega. Shahrixon tumanidagi Segazaqum qishlog'ida kalava ip tayyorlaydigan va kelgusida undan gazlama to'qiydigan "ANTEKS" ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati korxonasi barpo etildi va irrigatsiya bilan bog'liq bo'lgan tarmoklar, paxtani qayta ishlash, mashinasozlik va metallsozlik, elektrotexnika sanoatlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo, yengil (ip-gazlama, paypoq fabrikalari va boshqalar), oziq-ovqat sanoati eng rivojlangan tarmoklardir. Viloyat mamlakatda neft va gaz qazib chiqarishda salmoqli o'rin tutadi. O'nga yaqin neft va neft-gaz konlari (Andijon neft

¹ Andijon viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig'i



koni, “o‘jaobod”, “Bo‘ston”, “Janubiy Olamushuk”, “Xartum”, “Polvontosh”, “Xo‘jausmon” va boshqalar) ishlab turibdi. Xo‘jaobod — Andijon — Asaka gaz quvuri bor. Andijon viloyatida dastlabki paxta tozalash zavodlari Andijon shahrida 1911-yilda, Asakada 1912-yilda, Shahrixonda 1915-yilda qurilgan. Sanoatning bu turi paxta yetishtirishga qarab tez rivojlandi. 1924-yil paxta zavodlarida 25 ming t xom ashyo qayta ishlangan edi. 1999-yilda mavjud 13 ta paxta qayta ishlash korxonalarida 325 ming tdan ziyod paxta qayta ishlandi. Viloyatda yetishtirilayotgan pilla, jun, teri umuman qayta ishlanmasdan, lanib, 1999-yil oktabr ida ishga tushirildi). Baliqchi tumani noto‘qima matolar ishlab chiqarish yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi O‘zbek — Amerika qo‘shma korxonasi ham o‘z mahsulotlari bilan chet elda e‘tibor qozongan korxonalarandir. Qo‘shma korxonalar zamonaviy uskunalar bilan qayta jihozlandi. Kalava ip va xom gazlama tayyorlanadigan mazkur korxonada 1300dan ortiq ishchi ishlaydi(2000). Shuningdek, viloyatda rivojlangan mamlakatlarning sarmoyalari jalb qilingan “Andijon-Praga”, “Andijon durdonasi”, “Navigul”, “O‘z-Koromko”, O‘zbek-Rus-Britaniya “Mask”, “Al-Osiyo” qo‘shma korxonalar va O‘zbek-Amerika qo‘shma korxonasi filiali bor.

2017-2020 yillar davomida viloyat Yalpi hududiy mahsuloti (YaHM) 24% dan 38,5 trln. so‘mga, sanoat ishlab chiqarishi 8 trln. so‘mdan 36 trln. so‘mga (97% o‘shish) oshdi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 12% ga, 2016 yildagi 12 trln. so‘mdan 2020 yilda 27 trln. so‘mgacha o‘tdi.

Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2016 yildagi 36 mingdan 2020 yilda 42 minggacha 17 % ko‘paydi.

Infratuzilmani rivojlantirish sohasida 2016-2020 yillarda 47 km gaz quvurlari va 1553 km suv ta‘minoti tarmoqlari yotqizildi.

Shu davr mobaynida 180 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi.

Ushbu viloyat aholisi mamlakat aholisining umumiy 10% ini tashkil etadi, viloyat hududi esa respublika hududining atigi 1 foizini tashkil etadi. Ko‘p qavatli uylar qurish orqali aholining o‘shib borayotgan ehtiyojini qondirish choralari ko‘rilmoqda.

Jumladan, o‘tgan besh yil davomida viloyatda 5 224 ming kvadrat metr **uy-joy foydalanishga topshirildi**, maktabgacha ta‘lim muassasalarida 17 ming o‘rin, maktablarda 37 ming o‘rin, shifoxonada 4,3 ming o‘ringa mo‘ljallangan koyekalar joylashtirildi.

Bundan tashqari, joriy yilning iyun oyida yangi shahar – "Yangi Andijon" qurilishi boshlab yuborildi. Umumiy maydoni qariyb 4000 gektar bo‘lgan yangi shaharning bosh rejasiga ko‘ra, 1 439 gektar bino, jumladan, uy-joy, savdo va kichik sanoat zonalari, 1 820 gektar yashil maydon, 223 gektar ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi, shuningdek, 499 gektar ko‘chalar va yo‘llardan iborat bo‘ladi.

2019-2022 yillarda Andijon viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, quyidagilar 2019-2022 yillarda Andijon viloyatida ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- qurilish materiallari, tabiiy gaz, suyuq holdagi uglevodorodlar hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan, paxta, ipak, sut, go‘sh, charm, baliq, meva-sabzavotlar, dorivor o‘simliklar va shu kabi boshqa xomashyo bazasini rivojlantirish;
- respublikaning yirik sanoat korxonalarini bilan kooperatsiyaga ega vertikal va gorizontol integratsiyalashgan ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;
- foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va quvvatlari, shu jumladan, faoliyati to‘xtagan tashkilotlar negizida mavjud imkoniyatlarni maqbullashtirish hisobiga hamda ishlab chiqarish infratuzilmasiga ega kichik sanoat zonalari hududida qo‘shilgan qiymatlar zanjirini chuqurlashtirishga qaratilgan yangi loyihalarni amalga oshirish;



- viloyat iqtisodiyotining bitta yoki ikkita tarmoq mahsuloti narx kon'yunkturasiga bog'liqligini kamaytirishga, hudud sanoati va urbanizatsiya jarayonining muvozanatli rivojlanishiga qaratilgan ishlab chiqarishning tarmoq va hududiy diversifikatsiyasini ta'minlash;
- hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va importga bog'liqligini kamaytirishga qaratilgan keng turdagi tayyor raqobatbardosh mashinasozlik, elektrotexnika mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ustuvor qo'llab-quvvatlash.

Viloyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida eng avvalo yuqori salmoqqa ega engil sanoat, oziq-ovqat, mashinasozlik va qolgan sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish dasturlari bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hisobot davrida yengil sanoat tarmog'ida o'sish sur'ati 106,1 foiz, oziq-ovqat sanoatida 102,0 foizni tashkil etgan holda umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi engil sanoat (37,4%) va oziq-ovqat sanoati (31,3%) tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu davrda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 1458,2 ming so'm va aholi jon boshiga xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 1015,0 ming so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan mos holatda 175,2 ming so'm va 46,2 ming so'mga ko'p yoki 113,7 foiz va 104,8 foizga o'sishiga erishildi. Qishloq xo'jaligida islohotlarni qo'llash-quvvatlashi va rivojlantirish. Viloyat aholisini arzon, sifatli meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 yanvardagi 9-sonli qaroriga asosan viloyat hokimining 2017 yil 12 yanvardagi 16-sonli qarori qabul qilinib, nazorat o'rnatilgan. Xususan, 2017 yilda barcha xo'jaliklarda 261,4 ming tonna kartoshka, 741,5 ming tonna sabzavot, 69,8 ming tonna poliz, 249,6 ming tonna meva, 119,9 ming tonna uzum, chorvachilik mahsulotlaridan 132,2 ming tonna go'sht, 686,8 ming tonna sut, 465,8 ming. dona tuxum yetishtirilib, bu turdagi mahsulotlarni 2016 yilga nisbatan 101,1 foizga bajarildi. Uy-joy va kommunal xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyixalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi PQ-2639 - sonli qaroriga asosan viloyatda 2017 yilda 38 ta massivlarda 1184 ta namunaviy loyihadagi uy-joylar qurilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining yig'ilishida belgilab berilgan «2017 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlari» bo'yicha vazifalarni amalga oshirilishi, shuningdek, Hukumat tomonidan qabul qilingan tarmoq dasturlari va qarorlarida belgilangan parametrlarni viloyatda ijrosini ta'minlanishi hisobiga 2022 yil yakuni bilan iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror o'sish sur'atlari ta'minlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusufovich G. Y., Shavkat o'g'li S. Y. CARTOGRAPHIC RESOURCES USED IN THE CREATION OF ELECTRONIC AGRICULTURAL MAPS OF FERGANA REGION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. –2023. – T. 11. –No. 3. –C. 1001-1009.
2. Хорев В.С. Муаммо городов (шахарлармуаммолари). Москва, Мйсльнашриёти, 1975, 428 б.
3. Abduvakhovich A. A., Shavkat o'g'li S. Y. IMPROVING THE METHOD OF MAPPING AGRICULTURE USING REMOTE SENSING DATA //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. –2023. –T. 11. –No. 3. –C. 1093-1100.

